



**XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA**

**SOHA LINGVISTIKASI: TILSHUNOSLIK  
VA TIBBIYOT INTEGRATSIYASINING  
MUAMMOLARI, YECHIMLARI HAMDA  
ISTIQBOLLARI**

**10-NOYABR  
2021**

**BUXORO, UZBEKISTAN**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**  
**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**SOHA LINGVISTIKASI:**  
**TILSHUNOSLIK VA TIBBIYOT**  
**INTEGRATSIYASINING**  
**MUAMMOLARI, YECHIMLARI**  
**HAMDA ISTIQBOLLARI**  
**mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**  
**materiallari**

*Buxoro, 10-noyabr, 2021-yil*

© Tadqiqot.uz

***“Soha lingvistikasi: tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasining muammolari, yechimlari hamda istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.–Buxoro: Tadqiqot.uz, 2021.–252 b.***

Buxoro davlat universiteti O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi tadqiqot.uz. markazi, Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti bilan hamkorlikda “Soha lingvistikasi: tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasining muammolari, yechimlari hamda istiqbollari” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazdi.

O‘zbek, rus, ingliz tillaridagi mazkur konferensiya materiallarida tilshunoslikda til, shaxs, jamiyat munosabatlari tadqiqi muammolari va innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish istiqbollari; o‘zbek tili tibbiyot leksikografiyasi va terminologiyasini rivojlantirish ijtimoiy zaruriyat; tibbiyot ta‘limida lingvokulturologiya va psixolingvistikaning ahamiyati hamda dolzarbligi; tibbiy birliklarning lingvopoetik tadqiqi; amaliy filologiyani rivojlantirish kabi mavzular doirasida mulohaza yuritilgan.

**Mas‘ul muharrir**

**filologiya fanlari doktori,  
professor Abuzalova M.Q.**

**Taqrizchilar**

**filologiya fanlari nomzodi,  
dotsent Nazarova S.A.**

**filologiya fanlari nomzodi,  
dotsent G‘aybullayeva N.I.**

**tibbiyot fanlari doktori (PhD),  
dotsent Ixtiyarova G.A.**

**To‘plovchi va nashrga  
tayyorlovchi**

**pedagogika fanlari nomzodi,  
professor Yuldasheva D.N.**

*Mazkur to‘plamga kiritilgan maqolalar va tezislarning mazmuni, statistik ma‘lumotlar hamda bildirilgan fikr hamda mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas‘uldirlar.*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5717620>

© Buxoro, Tadqiqot.uz, 2021

8. Жүсіпұлы М. А. Байтұрсынов және қазіргі қазақ тілі фонологиясы. - Алматы: Ғылым, 1998. - 216 б

**Тил - миллат маънавияти ва маданияти такомилининг бош масаласи**

**Сайфуллаева Раъно Рауфовна\***

**Абузалова Меҳринисо Қодировна\*\***

**10.5281/zenodo.5685137**

**Аннотация.** Бугун тилшунослик олдида турган бош вазифа тилни эгасидан ажралган ҳолда эмас, балки шахс билан бирга ўрганишдан иборат. Мазкур ишни амалга ошириш соҳа лингвистикаси бўйича лугатчилик тараққиётини тақозо этади. Ўзбек тилшунослигида тил, шахс ва жамият муносабатлари тадқиқи муаммолари йўналишида тиббий лингвистика, компьютер лингвистикаси, топонимика мавзулари устида амалий ишлар олиб борилмоқда.

**Калит сўзлар:** *соҳа лингвистикаси, тиббий лингвистика, компьютер лингвистикаси, топонимика*

Ривоят қилишларича, бир филчани тугилганиданок қозикдаги узун занжирга боғлаб қўйибдилар. Филча йиғирма йил шу қозик атрофида айланиб ҳаёт кечирибди. Уни озод этишибди. Фил гарчи занжирбанд бўлмаса-да, яна йиғирма йил ўша қозик атрофида айланган экан... Дарҳақиқат, мустабиллик занжирларини узганимизга ўттиз йилдан ошди. Бугун биз қалбан, маънан, руҳан, ўзбек деган номга муносиб бўлиб яшашга тўла ҳақлимиз. Биз истиклол даврида қадимдан сайқалланиб келган, аждодлардан мерос бўлиб қолаётган бебаҳо бойликнинг ворислари сифатида она тилимизни қай даражада авайладик, асрадик, кўрикладик? Қай даражада нутқий компетентликка эга бўлдик? Афсуски, бунга ҳамиша ҳам ижобий жавоб қайтара олмаймиз.

Қадимий Туронда ахлоққа қатта эътибор билан қарашган. Маънили ва бежирим гапира билиш, нутқ одоби каби фазилатлар Туронда инсон умумий ахлоқининг таянч устунларидан саналган. Тарбия талаби ҳулқ билан, таълим талаби нутқ билан боғлиқ экан, шахснинг муомала маданияти ва одоби масаласи ҳар қачонгидан ҳам долзарблик касб этаверади. Инсон зоти борки, ҳар соҳада, ҳар жабҳада гўзалликка интилади. Дунё гўзаллик қонуниятларига биноан қуриларкан, демак, инсоннинг ҳулқи ва нутқи ҳам, муносабати ва мулоқоти ҳам гўзал бўлиши мақсадга мувофиқ. Қолаверса, француз ёзувчиси Антуан де Сент Экзюпери ёзганидек: «Мулоқот бу шундай неъматки, у орқали инсон лаззатланади [Экзюпери, 1963: 37]».

Нутқдан қачон лаззат олиш мумкин? Қачонки унда она тилимизнинг қатида мавжуд бўлган энг сара, дилтортар сўзлар танланса, она тилининг бой имкониятлари ишга солинса. Қуйида келтирилган мисралар бунинг исботи бўла олади.

Тилшунос олим Баҳром Бафоев Алишер Навоий ўз асарларида “қизил” сўзи маъносини берувчи 70 га яқин сўз (ол, сур, аргувон, аҳмар, гул-гул,

\* ЎзМУ профессори, ф.ф. доктори

\*\* БухДУ ўзбек тилшунослиги кафедраси профессори, ф.ф. доктори

гулгун, ёқут, лаъл, руммоний ва ҳ.к.) қўлланганини, маъшуқага мурожаат бирликларининг 100 га яқин (севгили, ёр, дилрабо, дилдор, дилором, дилистон, нигор, дилбар, маҳбуб, гул ва ҳ.к.) ифодаси мавжудлигини таъкидлаган эди. Таълим жараёнида шахснинг нутқий компетенциясини шакллантиришда албатта мана шундай бирликлар парадигмасига мурожаат қилинса, таълим олувчи лисоний тафаккури бойинмай қолмайди.

Пандемия туфайли бир қанча бирликлар нутқимиздан мустахкам ўрин эгаллади. Биргина коронавирус билан боғлиқ ўндан ортиқ *кўзга кўринмас ёв, тождор вирус, инсониятни иложсиз қолдирган вирус, тождор вируснинг тожи, хавfli ёв, тожли душман, кўзга кўринмас митти офат, тож кийган вирус, дунё иқтисодини емирувчи касаллик, инсон саломатлигининг кушандаси, чекинмаётган ёв, оламий фалокат* каби перифрастик, метафорик бирликларнинг фаол қўлланишда эканлигини кузатамизки, булар бевосита тиббий нутқ билан боғлиқ. Ёки касал кишини *хастаҳол, давоталаб, бетоб, касалман*о каби қўплаб вариантларда қўллаш мумкин.

“Ўзбекистон Республикасининг Давлат тили тўғрисида”ги Қонуни қабул қилинганига ўттиз икки йил тўлди. Агар сарҳисоб қиладиган бўлсак, миллатимиз тилига кейинги йилларда жиддий эътибор қаратилмоқда. Булар нималарда кўринади?

1. 2016 йилнинг 13 майида Биринчи Президентимиз Ислам Каримов томонидан имзоланган “Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университетини ташкил этиш тўғрисида”ги фармон ҳам XXI аср ўзбек халқи маданий ҳаётида оламшумул аҳамиятга эга бўлди.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги ПФ-5850-сонли “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони имзоланди. Фармонга биноан ўзбек тилига давлат тили мақоми берилган кун – 21 октябрь санаси “Ўзбек тили байрами куни” деб эълон қилинди.

3. 2020-2030 йилларда Ўзбек тилини ривожлантириш ҳамда тил сиёсатини такомиллаштириш концепцияси қабул қилинди ва унда тил тақомилига хизмат қилувчи катор вазифалар белгиланди.

4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузурида Давлат тилини ривожлантириш департаменти тузилди.

5. Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексига ҳам давлат тилини билиш борасида ўзгартиришлар қабул қилинди. Давлат тилида иш юритиш борасида Кодекснинг 42-моддасида маъмурий жавобгарлик белгиланди.

6. Ҳар бир вилоятда ташкилот раҳбар ҳамда ходимларини “Давлат тилида иш юритиш асослари” бўйича малакасини ошириш ва қайта тайёрлаш бўйича алоҳида тил марказлари очилди. Жумладан, БухДУ ҳузурида ташкил этилган бундай марказ аллақачон ўз фаолиятини бошлади.

7. Ўзбекистон Республикаси Инновацион ривожланиш вазирлиги томонидан эълон қилинадиган фундаментал, мақсадли ва тематик лойиҳа танловларида ҳам ўзбек тилини ўқитиш ва қўллашга алоҳида аҳамият қаратилмоқда. Тил ўргатишга доир турли типдаги платформалар, вебсайтлар яратилмоқда.

Бугун бош вазифа тилни инсондан узиб эмас, айро ҳолда эмас, балки шахс билан бирга ўрганиш вазифаси турибди. Ҳар бир соҳа бўйича лугатчилик лингвистик асосда тараққий этиши лозим. Айни кунларда республика кафедраларида шу йўналишда фаолият олиб борилмоқда. Ўзбек тилшунослигида тил, шахс ва жамият муносабатлари тадқиқи муаммолари йўналишида қатор тадқиқотчилар илмий фаолият билан шугулланмоқда; тиббий лингвистика, компьютер лингвистикаси, топонимика доирасида тасдиқланган мавзулари устида амалий ишлар олиб борилмоқда.

Тилимизнинг бугунга қадар омон-эсон келишининг асосий боиси халқимизнинг ўз она тилини жонидан севиши, ардоқлашидадир.

Аваз Ўтар айтганидек,

*Ҳар тилни билув эмди бани одама жондир,*

*Тил воситайи робитан оламиёндир.*

#### Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги ПФ-5850-сонли “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони

2. Bafojev B. Navoiy asarlari leksikasi.–Toshkent: Fan, 1983. – 157 b.

### **The use of examples of folklore in the description of the person**

**Tosheva Dildora Abdumalikovna\***

**10.5281/zenodo.5685167**

**Abstract.** Oral national creativities are very important wealth which keep a history, language and tradition of society, nation, country and other. And lead people to choose a right way, show some cribs for the situations which seems so difficult and which are not clear. Additionally, they do our mind fast, understandable. In any situation people may trust and rely them.

This article discusses the importance of Uzbek and English proverbs in reflecting the national, cultural and mental characteristics of both nations and ethnicities.

**Key words:** *uzbek proverbs, English proverbs, folk culture, national feature, linguoculturology, linguocultural characteristics, individual and universal seme, characteristics of mentality*

Proverbs play an important role in creating a figurative image based on people's worldview and cultural life. Zoonym component proverbs are found in almost all world languages. This is because humans and animals have lived side by side for thousands of years. Therefore, animals play a special role in the daily activities and cultural life of people.

As well as in English folk samples in response to his word, plus there are sayings. They will be recognized as an example for the younger generation. However, *none preaches better than the ant and she says nothing* (no one can give a good advice but ant. And he says nothing) to solve the problem with remaining in

---

\* Doctor of philological science (PhD), Head of the Department of Uzbek and Russian Languages, Pedagogical Institute of Bukhara State University. E-mail: dildona@mail.ru

<i>Inoyatov A.Sh.</i>	<i>Tibbiyot va til mushtarakligi</i>	<b>8</b>
<i>Daminov M.I.</i>	<i>Til va madaniyat</i>	<b>9</b>
<i>Qahhorov O.S.</i>	<i>Davlat tili - millatning tirik nafas</i>	<b>10</b>
<i>Xuseynova A.A.</i>	<i>Soha lingvistikasini rivojlantirish davr talabi</i>	<b>11</b>
<i>Aslonova E.S.</i>	<i>Государственный язык неотъемлемая часть духовной национальной культуры государства</i>	<b>12</b>
<b>Yalpi majlis ma'ruzalari</b>		
<i>Mengliyev B.R.</i>	<i>Tilshunoslik samara bersin.</i>	<b>15</b>
<i>Abuzalova M.Q.</i>	<i>Lingvistika va tibbiyot hamkorligi ijtimoiy zarurat sifatida</i>	<b>17</b>
<i>Чудакова В.П.</i>	<i>Психология пациента и этика врача</i>	<b>22</b>
<i>Ixtiyarova G.A.</i>	<i>Ginekologik kasallikni ifodalovchi tibbiy terminlar talqini</i>	<b>25</b>
<i>Myratbek B.Q.</i>	<i>Professor Q.Jybanov yuqebekteridagi soztañym negizderi (Q.Jybanov soztañymındağ'ы leksikologiya məseleleri)</i>	<b>27</b>
<i>Adilova S.A.</i>	<i>Tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasi (AQSHdagi ayrim universitetlar misolida)</i>	<b>36</b>
<i>Rajabov D.Z.</i>	<i>O'zbek tilini tadqiq etishda yangicha yondashuvlar</i>	<b>40</b>
<b>1-sho'ba. Tilshunoslikda til, shaxs, jamiyat munosabatlari tadqiqi muammolari va innovatsion g'oyalari tizimini shakillantirish istiqbollari</b>		
<i>Ahmedov B.Y.</i>	<i>Rus va o'zbek tillarida so'zlarning o'zaro tobe bog'lanishi: boshqaruv kategoriyasi</i>	<b>42</b>
<i>Akhmedov A.R.</i> <i>Po'latova S.M.</i>	<i>O'zbek shevalarini lingvo-geografik xaritalashtirish</i>	<b>46</b>
<i>Adilova N.I.</i>	<i>Leksik birliklarning milliy o'zlik ruhini ifodalashdagi roli (Erkin Vohudov dostonlari asosida)</i>	<b>50</b>
<i>Elova D.Q.</i>	<i>O'zbek tili milliy korpusi uchun so'zlashuv uslubiga xos so'zlarni teglash masalasi g'oid</i>	<b>55</b>
<i>Fayazova D.S.</i>	<i>Methodological approach in teaching process</i>	<b>61</b>
<i>Fayazova D.S.</i> <i>Shirinboyeva B.M.</i>	<i>Empowering languageskills through modern methods</i>	<b>65</b>
<i>Jo'rayeva D.R.</i> <i>Qo'shayeva N.E.</i>	<i>O'quvchilar va aholi imloviy savodxonligini rivojlantirishning dolzarb masalalari</i>	<b>68</b>
<i>Kurbonov A.M.</i>	<i>Tasks of effective use of the uzbek language</i>	<b>71</b>
<i>Mengliyev B.R.</i> <i>Hamroyeva Sh.M.</i> <i>Elova D.Q.</i>	<i>Qirg'iz va yoqut tili avtomatik morfologik tahlil vositalari tajribasidan</i>	<b>75</b>
<i>Muxtorov E.M.</i>	<i>Vrach kasbiy mahorati tuzilmasida kommunikativ kompetentlikning o'rni</i>	<b>79</b>
<i>Муратбек Б.Қ.</i> <i>Саламат Э.С.</i>	<i>Этнолингвистика этностық болмысты ұлттық тіл арқылы танып білу(Аймақтық лексика негізінде). Ethnolinguistics- knowledge of ethnic identity through the national language (based on regional vocabulary).</i>	<b>84</b>
<i>Orifjonova F.</i> <i>Orifjonova M.</i>	<i>Critically discussing student teachers' ideas</i>	<b>88</b>
<i>Ortiqova G. H.</i>	<i>Harakat tarzi shakllari va nutq</i>	<b>93</b>
<i>Saduaqas N.A.</i> <i>Ibragimov T.A.</i>	<i>Qazaq tilindegi dybys saykestigi turaly</i>	<b>97</b>
<i>Sayfullayeva R.R.</i> <i>Abuzalova M.Q.</i>	<i>Til millat ma'naviyati va madaniyati takomilining bosh masalasi</i>	<b>102</b>